

**BADIIY ASARDA SYUJET VA KOMPOZITSIYANING IFODALANISHI**

*Alimova E'zoza Zafar qizi*

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** Badiiy asar syujeti o'zaro aloqalar, qarama-qarshiliklar, kishilarning o'zaro munosabati u yoki bu xarakterning o'sishi va tashkil topishi bilan ko'rinar ekan, unga xarakterlarning kechinmalari tarixi ham kiradi. Fabula ham voqealardagi keskin burilishlar, voqeaning bir maromdan boshqa maromga birdan o'tishidir. Fabulaga tugun bilan echimni kiritadigan bo'lsak, syujetni asardagi voqealar oqimi deb hisoblay olamiz, ya'ni ularning bir-biriga bog'lanishidir, undagi aloqalar, qarama-qarshiliklar, xarakterlarning rivojlanishi tarixi, ana shu tarixning bosqichlaridir, asardagi tuyg'u va kechinmalarning mantiqiyligidir.

**Kalit so'zlar:** kompozitsiya, syujet, voqealar rivoji, tugun, yechim, konflikt.

Badiiy asarlarda voqealar borishida, xarakterlar taqdirida birdan kutilmagan keskin o'zgarishlar bo'ladi. Bu esa asarda yangi-yangi tugunlarni keltirib chiqaradi, kitobxonda qiziqishni kuchaytiradi. Ana shu tugun va yechimlarda xarakterlar mantiqi, voqea va xarakterlar rivojlanishi tarixi namoyon bo'ladi. Tugun va yechimlar o'z-o'zidan xarakterlar rivojlanishini ko'rsatmaydi. Xarakterlar va voqealarning rivojlanishi tarixi ana shu momentlar vositasida ochiladi. Syujetni qarama-qarshiliklar, xarakterlarning rivojlanishi tarixi, asardagi voqealar oqimi deb ta'riflashda asosan yirik nasriy va dramatik asarlarga xos xususiyatlar ko'zda tutilgan. Vaholanki, lirik asarlarda xarakter bo'lmaydi. Bo'lganda ham ularning rivojlanishi tarixi ko'rsatilmaydi, kichik janrlarda voqealar berilmasligi, ularning oqimi ko'rsatilmamasligi mumkin. Shuning uchun ham syujet faqat asardagi voqealar oqimi, xarakterlarning rivojlanish tarixigina emas, asardagi tuyg'u va kechinmalar oqimi, ularning rivojlanish mantiqi hamdir.

Syujet elementlari: - ekspozitsiya (bayon qilish, izohlash) - syujetda tugundan oldin keladigan vaziyatdir. Ekspozitsiyada qahramonlar, ularning o'zaro munosabati, asosiy hodisalar to'g'risida ma'lumot, axborot berilib, ular bilan kitobxonni tanishtirishdir. Ekspozitsiyaning o'zi hali asosiy voqeani, asar konfliktini keltirib chiqarmaydi. Shunday bo'lsa ham u asardagi asosiy voqealarning xarakter va yo'nalishlarini belgilaydi. Ekspozitsiyaning qaerda kelishi yozuvchi niyatiga bog'liq. Shunga ko'ra ekspozitsiya turlicha bo'ladi: to'g'ri, kechiktirilgan, teskari. To'g'ri ekspozitsiya tugundan oldin keladi. Kechiktirilgan ekspozitsiya tugundan keyin voqea ichida yoki undan oldin keladi. Teskari ekspozitsiya esa asar oxirida keladi (V.Kaverin «Ikki kapitan»). Ekspozitsiya prologga yaqin turadi. Biroq prologdan farqli ravishda asarning asosiy voqeasi bilan ichki birlikka ega bo'ladi.

Tugun - qahramonlar o`rtasidagi to`qnashuvning boshlanishi, asarda qo`yilgan jumboqdir. Asar voqealari ana shu jumboqning yechilishi bilan tugaydi.

Voqealar rivoji - personajlar o`rtasidagi munosabatlardagi o`zgarishlar. Voqealar rivoji ko`p qatlamli, ko`p bosqichli bo`lishi mumkin. Yangi tugunchalar, bir tomondan, asosiy tugunni yanada murakkablashtirsa, ikkinchi tomondan, asosiy tugun yechilishining bosqichlari rolini o`ynaydi. Bunda qahramonning oldingi tarixi, keyingi tarixi, tipik, tormozlanish, sir saqlash, topishish, kutilmagan o`zgarish kabi lahzalar ham bo`lishi mumkin.

Kulminatsiya - voqealar rivojining eng yuqori nuqtasi, konfliktning yechilishiga olib keladigan hayot va munosabatlar holatidir.

Yechim - hayotiy masalaning hal etilishi natijasidir. Yechim qahramonlarga munosabatni oydinlashtiradi, g`oyaviy va emotsional munosabatlarni o`tkirlashtiradi. Yechimda konflikt va voqealardan kelib chiqadigan g`oya ifodalanadi.

Postpozitsiya (tugallanma) - dramatik asarlarda esa final deyiladi. Bunda kurash natijasidagi kuchlarning joylashuvi ko`rsatiladi. Ekspozitsiya bilan postpozitsiya mustaqil g`oyaviy-badiiy darajaga ko`tarilsa, u prolog va epilog bo`ladi. Umuman, tugallanma personajlarning yechimdan keyingi holatidir.

Prolog - ekspozitsiya rolini o`ynaydi. Shu bilan birga, prologda tugun beriladi. Bu tugun kuchliroq bo`ladi.

Epilog - echimdan kengroq bo`lib, unda echimdan so`nggi qahramonlar taqdiri ko`rsatiladi. Epilog g`oyani yana ham chuqurlashtiradi. Ba`zan syujetni ham shaklga kiritishadi. Biroq syujetni butunlay shaklga kiritib bo`lmaydi.

Asarning asosiy konflikti syujetda ochiladi. Demak, syujet faqat shakl emas, mazmunga ham aloqadordir. Syujetda shakl bilan mazmun birlikda namoyon bo`ladi. Hayot kolliziyalarini bevosita ochadigan san`at turlaridagina syujet bo`ladi. Me`morchilik, xoreografiya va musiqaning ayrim turlarida syujet bo`lmaydi. Syujetda odamlarning o`zaro munosabatlari, simpatiya va antipatiyalari, ziddiyatlar aks etadi. Voqealarni dinamik ilg`ay olishda syujet qurish mahorati ko`rinadi.

Ayniqsa, dramada syujet qurish masalasi muhimdir. Dramada kulminatsiya butun voqealar taraqqiyoti jarayonida tayyorlanishi kerak. Syujet qiziqarli bo`lishi, quruq bo`lmasligi kerak. Syujet keskinligini qiziqarlilik bilan almashtirish ayrim asarlarni syujetdan voz kechishga olib keladi. Zamonaviy syujet katta ahamiyatga ega bo`ladi. Mavjud ilmiy va o`quv adabiyotlarida syujetning ikki turi haqida gapiriladi. Aslida esa, syujetning quyidagi to`rt turi bor: xronikali, retrospektiv, konsentrik va assotsiativ. Xronikali syujetda voqealar bir boshdan boshlanib, birin-ketin hikoya qilinadi. Xronikali syujet ishonarli bo`ladi. Biroq syujetning bu turi doim ham qulay vosita bo`la olmaydi, chunki xronikaning o`zi syujet bo`la olmaydi. Xronikalilik ko`pincha naturalistik bayonchilikka olib keladi, yorqin obrazlar yaratishga imkon bermaydi. Masalan, Navoiyning «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» dostonlarida,

Ayniyning «Esdaliklar»ida, P.Tursunning «O`qituvchi»sida voqealar qahramoning tug`ilishidan, to ma`lum yoshigacha beriladi. Biroq bu asarlarning kompozitsion qurilishi, voqealarni tanlash, saralash, umumlashtirish va ularni badiiy ifodalash mahorati, ularni joylashtirish, ya`ni kompozitsiya shunga olib keladiki, bu asarlarni o`qigan kishi unda ortiqcha narsa yo`q, barcha voqealar badiiy-estetik va ijtimoiy qimmatga egadir, degan xulosa chiqadi. Ularda e`tiborga loyiq va qiziqarli syujet hosil qilinadi.

Retrospektiv (orqaga qaytuvchi) syujetda voqealar bir boshdan birin-ketin hikoya qilinmay, balki voqeaning ma`lum joyida to`xtatib qo`yilib, uning o`tmishiga, oldingi voqealarga murojaat qilinadi. Ba`zi asarlar umuman ana shunday orqaga qaytishga asoslansa, ayrim masalalarda vaqti-vaqti bilan voqealar hamda qahramonlarning o`tmishiga qaytib turiladi. Masalan, M.SHoloxovning «Inson taqdiri» qissasi butunicha orqaga qaytishga asoslangan. A.Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanidagi Solih Mahdumning o`tmishi tasviri, H.Olimjonning «Zaynab va Omon»ida Zaynab bilan Omonning o`tmishi, O`.Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar» romanida komissar va T.Malikning «Shaytanat» qissasida bosh qahramoni Asadbekning o`tmish hayoti tasviri kabilar vaqti-vaqti bilan orqaga qaytish namunasi bo`ladi.

Kontsentrik syujet tadqiqot syujet ham deyiladi. Unda voqea hikoya qilinmaydi, o`tmishga ham murojaat qilinmaydi. Kontsentrik syujetda biror hodisaning sabablari tahlil qilish jarayonida sodir bo`lgan voqealar kitobxon ko`z o`ngida jonlanadi. Masalan, O`.Umarbekovning «Yoz yomg`iri» qissasi boshida Chorsudan Mo`nisning jasadi topiladi. Uning qanday o`ldirilganligini yozuvchi ham, kitobxon ham, asar qahramonlari ham hikoya qilib bermaydilar. Jinoyat sabablarini tekshirish jarayonida kitobxon ko`z o`ngida sodir bo`lgan voqealar jonlanadi. Sofoklning «Shoh Edip», O.Abdullinning «O`n uchinchi rais» dramalari, H.G`ulomning

«Mash`al», O.Yoqubovning «Larza», O`.Umarbe-kovning «Fotima va Zuhra», O`.Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar», T.Malikning «Shaytanat» kabi asarlari ham syujetning ana shu turiga asoslanib qurilgan. Chunki kontsentrik syujet ko`pincha detektiv asarlar uchun xos bo`ladi. Assotsiativ syujet ilgarilari asosan lirik asarlar uchun xarakterli bo`lib, lirika tashqi hodisalarga shoirning munosabati yoki tashqi hodisalar ta`sirida shoir Shaxsida tug`ilgan tuyg`u va kechinmalarga asoslanardi. Hozirda syujet qurishning assotsiativ usuli yirik nasriy va dramatik asarlar uchun ham xos bo`lib qolmoqda. Bunday asarlarda hikoya qilinmaydi, balki qahramonning xotiralari, o`y-xayollari, tasavvurlari oqimi beriladi. Masalan, A.Muxtorning «Davr mening taqdirimda», «Chinor», S.Anorboevning «Umr», Ch.Aytmatovning «Alvido, Gulsari», «Asrga tatigulik kun», O`.Umarbekovning «Shoshma quyosh», O.Yoqubovning «Ko`hna dunyo» asarlari asotsiativ syujet asosida qurilgan. Lirik poemalar syujeti ham assotsiativ usulga asoslanadi.



Asarda har bir personaj o'z xarakteri va vazifasiga ega bo'ladi. Ularning barchasi asosiy narsaga, ya'ni voqealar rivojiga birlashtiriladi va shu bilan asar syujetini ochishga xizmat qiladi. Syujet bilan kompozitsiya ajralmasdir. Syujet bo'shligi kompozitsiyaning bo'shlig'ini keltirib chiqaradi. Aniq Shakllantirilmagan bo'sh kompozitsiya esa syujetni halok qiladi. Biroq yaxshi ishlangan kompozitsiyaning o'zi ham muvaffaqiyat keltirmaydi. Kompozitsiyaning qimmati g'oyaning qimmati bilan belgilanadi. Yaxshi kompozitsiyada ifodalangan g'oya syujetni ham yaxshilaydi. Demak, syujet asar mazmunini ochish shaklidir. Kompozitsiya - voqealar, obrazlar va asosiy g'oyani ochishga xizmat qiladigan vositalarning joylashtirilishi, me'yor va nisbatidir. Kompozitsiya - asarning qurilishi, tuzilishi, uning strukturasi. Kompozitsiya - asardagi barcha qismlarni uyushtiruvchi muvofiqlikdir, alohida elementlarning, voqea va epizodlarning joylashishi, elementlarning bir butunga xizmat qildirilishidir. Kompozitsiya markaziy figurani belgilab olib, so'ng boshqa personajlarni uning atrofida joylashtirishdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari".-T., O'zbekiston. 2002. 2. Kattabekov A. Tarixiy haqiqat va badiiy mahorat.-T., Fan. 1972
3. Oybek. Adabiyot, tarix, zamonaviylik.- "O'zbekiston madaniyati" 1966-yil 1-oktabr
4. Деева Е. У истоков социал-демократического движения в Туркистане. Ташкент, 1975
5. "Юрий Тинянов" kitobiga yozilgan so'z boshi. M., 1963 6. Ю. Трифонов "Ли тературная газета", 19 июня 1974 г
6. M.O.Tokhirjonovna. VOCABULARY DEVELOPMENT IN ONTOGENESIS IN PRESCHOOL CHILDREN. Modern Journal of Social Sciences and Humanities 5, 375-379
7. M.O.Tokhirjonovna. Semantics of the Word in Children's Speech. International Journal of Culture and Modernity 17, 267-273
8. O.Maxmudova. СЎЗ ЛЕКСИК МАЪНОСИНИНГ ҲОСИЛА МАЪНО ЮЗАГА КЕЛТИРИШИ. Science and innovation 1 (B6), 171-176
9. O.T.Maxmudova. TURKIY SO'ZLARDA O'ZAK MORFEMA TUSHUNCHASI. Journal of Integrated Education and Research 1 (6), 52-54
10. O.T.Maxmudova. ONA TILINI O'RGANISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ORQALI TALABALARDA VATANPARVARLIK RUHINI SHAKLLANTIRISH. Innovative development in the global science 1(5), 81-87.
11. O.Maxmudova. OZBEK TILSHUNOSLIGIDA BOGIN VA UNING TIPLARI YUZASIDAN OLIB BORILGAN IZLANISHLAR. OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI, 105